



XUSUSIY MAKTAB VA DAVLAT MAKTABLARIDA O'QITISH TIZIMIDAGI FARQLAR

Karimova.U.O

SamDCHTI o`qituvchisi, Ilmiy rahbar

Nosirova S.Sh

SamDCHTI, Ingliz tili I fakulteti Talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy maktab va davlat maktablari va ularning o'qitish tizimidagi asosiy farqlar bayon etilgan. Shuningdek, maqola bu ikki xil maktablarning ijobiliy va salbiy xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan.

Kalit so'zlar: Xususiy va davlat maktablari, o'quv rejalar va dasturlar, o'zlashtirish, ta'lif sifati, qulaylik, xavfsizlik, moliya.

Hozirgi kunda davlat maktablari ham, xususiy maktablar ham rivojlanib bormoqda ammo ayni damda xususiy maktablarning anchagina jadal rivojlanganligiga yaqqol guvoh bo'lishimiz mumkin. Kundan kunga talab ortganligi sababli, xususiy maktablar yangitdan barpo etilyapti va o'z ta'lif sistemasini ancha jadallashtiryapti.

Jumladan, so'nggi besh yil davomida xalq ta'lifi tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, "Ta'lif to'g'risida" qonunning yangi tahriri qabul qilindi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi. Maktab ta'lifini rivojlantirish sohasida bevosita 17 ta hujjat, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta hujjati qabul qilindi.(2)

Davlat maktablari va xususiy maktablar o'rtasidagi tafovutlar: Davlat maktablari va xususiy maktablar o'rtasidagi asosiy farq ularning moliyalashtirilishi va boshqarilishi hisoblanadi. Nomlaridan ko'rinish turibdiki, davlat maktablari hukumat tomonidan moliyalashtiriladi, xususiy maktablar esa xususiy tashkilot

tomonidan boshqariladi.

❖ Davlat maktabi bu nima?

Umumta'lim maktablari barcha bolalar uchun majburiy bo'lgan boshlang'ich yoki o'rta maktablar hisoblanadi. Ular hukumat tomonidan to'liq moliyalashtiriladi va nazorat qilinadi. Davlat maktablari hukumat tomonidan nazorat qilinadigan, o'quv dasturlari davlat yoki milliy darajada hal qilinadi, ya'ni barcha umumta'lim maktablari bir xil o'quv dasturiga amal qiladi. Qabul va test sinovlari ham hukumat tomonidan boshqariladi. Umumta'lim maktablariga qabul talabaning manzili bo'yicha belgilanadi. Maktablar o'sha hududga tegishli bo'lgan o'quvchilarini qabul qilishlari shart.

Texnologiyalar va boshqa vositalar maktablarga qarab turlicha bo'lishiga qaramay, davlat maktablari odatda xususiy maktablarga qaraganda kamroq imkoniyatga ega. Xususiy maktabning o'quvchilariga qaraganda, davlat maktablarining o'quvchilar soni ko'proqdir.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, davlat maktablari har doim bolalarga sifatli ta'lim berish uchun yuqori malakali o'qituvchilarni ishga qabul qiladilar. O'qituvchilar davlat tomonidan tasdiqlangan barcha talablarga javob berishlari va davlat maktabida ishlash uchun yetarlicha bilim va mahoratga ega bo'lishi lozim.

❖ Xususiy maktab nima?

Xususiy maktab hukumat tomonidan moliyalashtirilmaydi va boshqarilmaydi. Bu xususiy tashkilot tomonidan nazorat qilinadi va qisman yoki to'liq talabalar tomonidan to'lanadi. Xususiy maktablarda to'lov odatda yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, xususiy maktablar odatda davlat maktablariga qaraganda yaxshiroq jihozlangan va eng zamonaviy texnologiyalarga egadir. Xususiy maktablar hukumat qaror qilganidek bir xil o'quv dasturlariga amal qiladi. Maktab ma'murlari to'lovlar va qabul qilish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishadi. Shuningdek, xususiy maktablar o'qituvchilarni ishga qabul qilish mezonlarini o'zlari belgilaydilar.[1]

Xususiy va davlat maktablarining o'qitish tizimidagi yana bir farq, maktablarning moddiy-texnik ta'minot bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi. Xususiy maktab o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabat

uchun qulay hisoblanadi. Bu qulaylik mакtabning zamonaviy texnologiyalar, ya'ni smart-doskalar va kompyuter jihozlari bilan ta'minlanishini talab qiladi. Bularsiz mакtab ta'limi zamonaviy voqelikdan orqada qoladi, bu esa ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ma'lum darajadagi moddiy-texnik ta'minot ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.[2]

Xulosa: Umumiylar qilib aytganda, hozirgi paytda davlat mакtablarining ham xususiy matablarining ham o`qitish tizimi a`lo darajada, ammo biz asosiy e'tiborni mакtab tanlashga emas, balki u yerda faoliyat yuritayotgan o`qituvchilarga e'tibor qaratishimiz kerak, chunki ta'lim o`qituvchi va o'quvchi munosabatlari ustida quriladi. Xususiy va davlat mакtablarida ham yomon o`qituvchilar yoki bolaning kelajagini to'sib qo'yadigan, ta'limdan mehrini kamaytirib qo'yadigan o`qituvchilar yo'q deb tushunmasligimiz kerak va asosan, mакtablarga emas, u yerda ishlaydigan o`qituvchi va murabbiylarning qay darajada ilmli,bilimli va salohiyatli ekanligiga e'tiborni qaratish lozim.[3]

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1) <https://.uz,news/2018/08/10>
- 2) <https://m.aniq.uz>
- 3) <https://rahimovschool.uz>